

O'ZBEKISTONDA OLIB BORILAYOTGAN KENG KO'LAMLI IJTIMOY ISLOHOTLAR

Ahmatov Shohruh Alijon O'g'li

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
sotsiologiya kafedrasida 2-kurs mustaqil izlanuvchisi (Phd)*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi va globallashtirish sharoitida mafkuraviy tahdidlarni oldini olishga qaratilgan tizimlar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Globallashtirish, mafkuraviy tahdidlar, ma'naviy xurujlar, ta'lim-tarbiya, kompyuter, internet, "Ommaviy madaniyat", model, strategiya.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil Oliy Majlisga Murojaatnomasida bugungi kunda islohotlarimiz samarasi ko'p jihatdan to'rtta muhim omilga – ya'ni, qonun ustuvorligini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi qat'iy kurashish, institutsional salohiyatni yuksaltirish va kuchli demokratik institutlarni shakllantirishga bog'liq ekanligini yana bir ta'kidlab o'tdi.

Harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishi davlat va jamiyat rivojlanishida, tom ma'noda yangi O'zbekiston bunyod etilishida beshta tayanch ustun vazifasini o'tamoqda. Erkinlik va farovonlik g'oyasi xalqni birlashtiradi, ezgu maqsadlarga da'vat etadi. Aytish kerakki, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Odamlar kelajakda emas, bugun baxtli yashashi kerak" degan g'oya va qariyb besh yil davomida ushbu ezgu tashabbusni amalda ro'yobga chiqarish borasida kechayotgan ulkan islohotlar jamiyatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishda muhim asos bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining qat'iy siyosiy irodasi bilan mamlakatimiz demokratik taraqqiyot yo'lidan dadil ildamlab borayotir. Prezidentimiz tashabbusi asosida xalq bilan bamaslahat ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasining asosiy maqsadi ham xalqimizni tom ma'noda baxtli qilishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi asosida davlat va jamiyatda kechayotgan kuchli modernizatsiya jarayoni barcha sohada yuksalish to'lqinini yuzaga keltirdi. Bu dunyo hamjamiyatining ham keng e'tirofiga sazovor bo'layotgani xalqimizni yanada ruhlantirib, barchamizni yangi marralar, ulkan maqsadlar sari undamoqda.

Harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishi davlat va jamiyat rivojlanishida, tom ma'noda yangi O'zbekiston bunyod etilishida beshta tayanch ustun vazifasini o'tamoqda. Oxirgi yillarda ana shu muhim tayanchlarni mustahkamlash bo'yicha ulkan, strategik islohotlar amalga oshirilmoqda.

2022-yil 28-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonni imzoladi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 2017-2021-

yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining izchil mantiqiy davomi bo'lishi bilan birga, Yangi O'zbekiston taraqqiyotida amalga oshirilishi lozim bo'lgan konseptual va tizimli islohotlar rivojlanish tendensiyalari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda prognozlarini ham qamrab olishi bilan qimmatlidir.

Taraqqiyot strategiyasida tanlab olingan 7 ta ustuvor yo'nalish davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan va ularning har biri inson qadrini ulug'lash, xalq farovonligini oshirish, mamlakatning iqtisodiy qudratini yuksaltirishga qaratilgan. Ayniqsa, mahallaning "Faol" modelini joriy etish, hududlarda birlamchi tibbiy xizmatini "Bir qadam" tamoyili asosida yo'lga qo'yish, "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, davlat boshqaruvi organlarining "Davlat - inson uchun" tamoyili asosida hududiy masalalarni hal qilishdagi mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish kabi mamlakatning rivojlanishi va inson qadrini ulug'lashga qaratilgan muhim tamoyillar va dasturlar Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun to'g'ri va odilona yondashuvni belgilab beradi.

Taraqqiyot strategiyasida adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha 2022-yilgi davlat dasturi doirasi amalga oshirilishi belgilangan vazifalar ham bevosita inson qadrini ulug'lash, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslarini ta'minlash hamda fuqarolarning huquq va manfaatlarni yanada ishonchli va samarali ta'minlash maqsadini ko'zlaydi.

Jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatish tartibi joriy etish; qarori, harakati (harakatsizligi) noqonuniy emasligini ma'muriy sudda isbotlash majburiyatini, uni qabul qilgan mansabdor shaxsning o'ziga yuklash tartibini ta'minlash; jazoni o'tab bo'lgan fuqarolarni uchun "Dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"ni berish tizimi yo'lga qo'yish kabi vazifalar bugungi kunda dolzarb bo'lib turgan muammoli masalalarni hal qilish bilan birga, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari yaratilishiga asos bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, huquqiy asoslari bilan hamohang ravishda yuqoridagi muhim omillarni ilmiy-nazariy tadqiq etish oldimizga ustuvor vazifalarni qo'yimoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "...butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi".

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davlatimiz ravnaqi uchun tamal toshi bo'lib xizmat qiladi. Bunday jarayon, tabiiyki, xalqimiz ongu va tafakkurining shakllanishi, dunyoqarashimizning o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Prezidentimizning 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning navbatdagi qadami, desak adashmaymiz. Mazkur qaror negizida ilgari surilgan "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" g'oyasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy

sohalarda olib borilayotgan yangilanishlar, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda olib borilayotgan faoliyatning uzviy davomi sanaladi.

Shu bilan birga, siyosiy islohotlar xalqaro munosabatlar tizimida yangi jahon tartibotini shakllantirish uchun olib borilayotgan bir davrda kechmoqda. Globallashuv jarayonining shiddat bilan kechishi natijasida jahon xalqaro munosabatlar tizimida keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Uchinchi renessans" davri nafaqat yoshlarda, balki har bir shaxs, har bir fuqaroda mas'uliyat hissini yuzaga keltirmay qolmaydi. Bu esa, o'z navbatida, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tizimini takomillashtirish, davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Bugungi kunda o'z geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlariga erishish, xalqaro maydonda yetakchilik uchun raqobat olib borayotgan kuchlar tarafidan yurtimizga nisbatan "Axborot hujumi" uyushtirilayotganligini kuzatish mumkin. Qadimgi davrda davlatlararo nizolar jangga olib kelgan va ular o'rtasidagi muammolar yechimi jang natijasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Biroq davrlar o'tib, "Harbiy yechim" S.Xantingtonning "Madaniy raqobat"iga aylangan bo'lsa, bugungi kunda esa bu muammo bo'lib qolmoqda.

F.Fukuyamaning "G'oyaviy-mafkuraviy qobiq"ga o'ralgan "Axborot urushi" doirasida olib borilmoqda. Miloddan avvalgi II asrda xitoylik sarkarda Sun Tsi tomonidan aytilgan: "Yuz marotaba jang qilib, yuz marotaba g'alaba qozonish g'alabani a'losi emas, g'alabani a'losi jangga kirmasdan turib dushmani mahv etishdir" g'oyasi davrning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda.

Axborot urushi globallashuv jarayonining mahsuli bo'lib, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, turfa xil siyosiy kuch va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini aytish o'rinli. Albatta, bugungi kun uchun bu holat yangi emas.

Insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan qudratli shaxslar harbiy aslahalardan ming chandon ustun turgan "Axborot quroli"dan samarali foydalanib kelgan. Ta'kidlash joizki, mazkur yo'nalishdagi izlanishlar xorijiy mamlakatlarning qator aqliy markazlarida XX-asrning 60-yillaridayoq boshlangan. Birlashgan Qirollik Bosh vaziri Uinston Cherchillning: "Haqiqat o'z shippagini kiyguniga qadar, yolg'on butun dunyoni kezib chiqishga ulguradi", iborasi aynan axborot urushining mazmunini belgilab beradi.

Bugungi kunda dunyoda yuzlab ekstremistik tashkilotlar mavjud bo'lib, ularning aksariyat qismi Islom dini niqobi ostida faoliyat yuritmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimiz hududida ham millatlar o'rtasidagi totuvlikni buzish, dunyoqarashi to'liq shakllanmagan yoshlarni milliy, diniy va ma'naviy qadriyatlarimizga qarshi qo'yish, ularni aqidaparastlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan urinishlar ko'p bo'ldi. Bugungi tinchosuda hayotimiz, barcha sohalarda erishayotgan ulkan muvaffaqiyatlarimiz bunday aqidaparast kuchlarning g'oyalari nechog'lik asossiz ekanini isbotladi.

Dunyoning turli mintaqalarida ro'y berayotgan mudhish voqealarga uyg'oq ko'z, teran tafakkur bilan qarash va baho berishni hozirgi kunda hayotning o'zi taqozo etmoqda. Bu

muammolarga mening daxlim yo'q, degan tushuncha bilan beparvo va loqayd yashash mumkin emas. Ayniqsa, o'zlarini go'yoki din himoyachisi sifatida ko'rsatayotgan aqidaparast kuchlar turli internet saytlari va ko'plab ijtimoiy tarmoqlar orqali hali mustaqil dunyoqarashga ega bo'lmagan yoshlarni o'z saflariga kelib qo'shilishga undayotgan bir paytda bu masala yanada dolzarbdir.

Mamlakatimizdagi tinchlik, hamjihatlikka raxna solishi mumkin bo'lgan tahdidlardan aholi, ayniqsa, yoshlarning ogohligini muntazam oshirib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, yoshlarni barkamol insonlar etib voyaga yetkazish, yot mafkuralar, xurujlardan asrash, ularda turli g'oyaviy tahdidlarga qarshi turish ko'nikmalarini shakllantirish davlatimiz yuritayotgan siyosatning muhim yo'nalishlaridan sanaladi.

Tinchlikni saqlash hushyorlik va ogohlikni talab qiladi. Afsuski, hayotimizda sodir bo'layotgan noqonuniy xatti-harakatlarni ko'rib ko'rmaslikka oladigan, tinchlikni saqlash faqat davlatning ishi deb o'ylaydiganlar, farzandlarining tarbiyasi bilan qiziqmaydigan ot-onalar ham borligini qayd etish lozim. Vatan oiladan boshlanadi. Oilada tinchlik bo'lsa, mahalla, qishloq, shahar, viloyat va nihoyat, mamlakatda osoyishtalik bo'ladi, yurt ravnaq topadi. Farzandlarimizning ilmiy saviyalari, kasbu hunarlari bilan axloqiy fazilatlarini ham o'stirib borishimiz kerak. Yosh avlodning turli yot oqimlar ta'siriga tushib qolishini oldini olish to'g'risida g'amxo'rlik nafaqat hukumatimiz yoki ta'lim muassasalarining vazifasi, balki har bir ota-onaning ham muqaddas burchidir.

Biz jamiyatimizda milliy mafkurani lozim darajada shakllantirmas ekanmiz, g'oyaviy bo'shliqqa chek qo'ymas ekanmiz, jamiyat taraqqiyotida tartibsizlik holatlari davom etaveradi. Milliy mafkurani anglash odamlarning ongi, tafakkuri, shuuri va madaniyati asosida shakllanadi. Shu bois birinchi navbatda aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida milliy mafkurani singdirishni keng yo'lga qo'yishimiz lozim. Oddiy qilib aytganda, farzandlarimizga bolalik paytidan yaxshi va yomon, mumkin va mumkin emas degan tushunchalar o'rtasidagi farqni o'rgatishimiz, o'zimiz esa ularga doim shaxsiy namuna bo'lishimiz kerak. Biz jamiyatda shunday mafkuraviy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. - T.: O'zbekiston, 1992. 15-16-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-iyun kuni "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizni sofligini asrash - davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqidan. 6-7-betlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 2020yil, 10-11-betlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni 2022-yil 28-yanvar.